

UNUTILMAS ADIBNING UNUTILMAS ASARI

*Ibragimova Nazira Jovli qizi*  
*Termiz davlat universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada taniqli yozuvchi Yavdat Ilyasovning ijod yo'li va ba'zi asarlari tahlili yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** "Qora beva", Sug'diyona, Spetamin, saklar, yunonlar

Taniqli yozuvchi Yavdat Elyasovni bugungi o'zbek kitobxonini yaxshi bilmasligi mumkin. Holbuki, XX asr 60-80-yillarida O'zbekistonda yashab rus tilida ijod qilgan yozuvchilar orasida Temur Po'latovdan keyin asarlari eng ko'p o'qilgan adib ham Yavdat Elyasovdir.

Meni Yavdat Elyasov asarlari bilan dastlabki tanishishim juda qiziq bo'lgan. Bundan 30 yil muqaddam 1981-yil kech kuzida Moskvada harbiy xizmatda yurgan vaqtimda men Buxoroda uydan posilka oldim. Ota-onam menga yuborgan turli quruq mevalar va shirinliklar orasida oqish sarg'ish bir kitob ham bor edi. Men adibning o'shanda Sug'diyona kitobini ilk bora qo'limga olgandim. Buyuk yozuvchining mazkur tarixiy romanini Moskvaning quruq, rutubatli va nam havosida poyonsiz o'rmondagi qayinlar ostida yutoqib o'qiyotganim hozirgidek ko'z o'ngimda. Kitobni o'qishdan tuygan lazzatim Spetamin (Spantamano) jasoratlari o'zbek xalqi ajdodining olis o'tmishidagi hayoti meni tarixchi bo'lishga undagandir. Yana bir holat o'shanda men xizmat qilayotgan harbiy garnezondagi o'zbek askarlari o'rtasida Sug'diyona qo'lma-qo'l bolib ketgan edi. Keyinchalik men O'zbekistonga qaytdim va Toshkent davlat universitetining tarix fakulteti talabasi bo'ldim. Afsuski, bu paytda Yavdat Elyasov bu yorug' olamda yo'q edi. Yozuvchi bilan uchrashish va u bilan, muloqotda bo'lish men uchun bir armonga aylandi.

Yavdat Elyasovning ijod yo'li 1949-yildan boshlanib uning she'rlari, ocherklari va lavhalari Bellocers shahar gazetasi Ufadagi Boshqird yoshlar gazetalarida e'lon qilindi. U 1952-yildan e'tiboran Boshqirdiston gazetalarida va O'zbekiston gazetalarida muxbirlilik qildi. Keyinchalik Toshkent shahrida muqim yashab qoldi. 1957-1958-yillarda Zvezda Moskva jurnalining she'riyat bo'limini boshqardi. O'zbek, boshqird, tatar, arab tillaridan she'riy, nasriy va dramatik asarlarni rus tiliga tarjima qildi. Yavdat Elyasovning "G'azab so'qmog'i" nomli birinchi tarixiy qissasi 1956-yilda nashr etildi. Y. Elyasovning "Burgut va bulbul", "O'zing yona bilmasang", "Qo'shnim bilan hasratlashdim", "Bulbul honishi" kabi she'riy kitoblari Boshqirdistonda rus tilida nashr etilgan. U tatar va qirim tatar tillaridan Peshit, Chirkizali va Setumer kabi shoirlarning, arab tilidan Sumadahning Afg'onistonlik Mahmud Tarziyning urdu tilidan Pokistonlik shoir Fayz Ahmadfayzning she'rlarini va o'zbek yozuvchilarining asarlarini rus tiliga tarjima qildi. Uning rus tilida yozilgan "G'azab so'qmog'i", "Sug'diyona", "Quyosh va o'q", "Olachipor ajal", "Ilon avrovchi", "Qismat sehgari", "Sukut minorasi", "Qora beva", "Oltin sanam", "Anahito qasosi" kabi tarixiy roman va qissalari adabiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olinib, munaqqidlarning e'tiboriga sazovor bo'ldi. U asarlarida muallif vatani uchun jon fido etgan jasur va irodali halol odamlar obrazini yaratish bilan birga bizga uzoq moziy haqida ishonarli ma'lumotlar berdi. Bu kitob ko'plab o'quvchini Kir II va Aleksandr Makedonskiy yashagan davrga yetaklaydi. Mazlum xalqlarning bosqinchilarga qarshi mardonavor kurashi bilan tanishtiradi. Bular orasida afsonaviy ravishda badavlat bo'lgan kres va bosqinchilarni qush uchsa qanoti, Odam yursa oyog'i kuyadigan cho'l-u biyobonda adashtirgan podachi Shiroq eng kuchli davlatlarni zabt etgan Sug'd (Sug'diyona) mag'lubiyatga uchragan Aleksandr Makedonskiy yengilmas Kir II (buyuk kurush) ga qarshi mardonovor kurashgan

massagetlar malikasi To'maris mazlum xalq ozodligi uchun podsholikdan vos kechgan oliyjanob Spitamenlar bor.

“Qora beva” qissasida odamlarning bag'rikenglik hislatlari psixologik jihatdan ishonarli ochiladi. Rus savdogarlari Oleg, Bulg'or va Gaylan hamda ularning xizmatkorlari Sabur turkiy xalq bulg'orlarning Oyxon shahriga tasodifan borib qoladilar. “Odamlar bir-birisiz yasholmaydilar”,- deydi Sabur. Bulg'oriyada necha asrlardan buyon xorazmliklar joylashib o'troqlashganlar. Ularni hech kim haydagan emas, aksincha, aziz mehmonlar deb ulug'laganlar. Xorazm esa shuni aytish kerakki, rus bilan savdo aloqalarini olib borgan. Sog'lom aql egasi bo'lgan odamlar qo'lda qilich bilan boshqa mamlakatlarga sang'irmidilar? “Boylikni ular o'z mehnatlari bilan topgan”,- deydi “G'azab so'qmog'i” asarining bosh qahramoni Shiroq Fors shohi Doroga. Bu asar uzoq moziyga tegishli bo'lsada, hozir ham dolzarbligini yo'qotmagan.

Yavdat Elyasov bir qancha kino ssennariylar muallifi hamdir. “Dorbozlar” badiiy filmi muvaffaqiyatli chiqqan. A.Platonovning “Jon” hikoyasi asosida “Jazirama yoz o'rtasida qaynayotgan suv” nomli badiiy filmi ssennariysi (Hamdamov bilan hamkorlikda) “Sug'diyona”, “Darvishlar oroli” badiiy film ssennariysi adib qalamiga mansubdir. Yavdat Elyasov 53 yoshida 1982-yil 19-iyun kuni vafot etdi. Undan ko'plab tarixiy qissa va romanlar meros qoldi. Yavdat Elyasov ijodida buyuk matematik astranom shoir- Umar Hayyom (1048-1131) haqidagi qissalari alohida o'rin tutadi. Bular “Ilon avrovchi” va “Sukut minorasi” tugallanmagan asarlaridir. Ularda sharq xalqining sevimli shoiri, astronomi va faylasufining murakkab obrazini yoritishga harakat qilinadi. Bu asarlar yozuvchining boshqa asarlari kabi insoniyat uchun mangu bo'lgan ma'naviy axloqiy masalalar bo'yicha bahs yuritilgani boiz o'quvchini o'ziga jalb etadi va hozirgi zamonning ko'plab muammolari haqida o'ylashga majbur qiladi. Muallim murakkab davrlardan biri o'rta asrlarda sharqdagi hokimiyat uchun kurashini va o'sha kunlar muhitini tarixan haqqoniy tasvirlab beradi. Umar Hayyom o'z davri sharq hayoti doirasida o'ralib qolgan emas. Uning taqdiri olim va shoir sifatidagi mehnati, nosir sifatidagi ijodi jahon tarixiga singib ketadi. Jiddiy sinovlarga qaramay (Tuhmat va g'azabga uchrab, qashshoqlik va atrofdagilar uni tushunmasligi) u o'z g'oyalariga xiyonat qilmadi. Iste'dodi, bilimi, taraqqiyparvar intilishlari bilan adolat uchun kurashdi. Shu o'rinda bir narsani ta'kidlab o'tish joiz, Yavdat Elyasovning “Ilon avrovchi” tarixiy asari sovet hokimiyati davrida komunistik mafkura jamiyat hayotining barcha sohalariga o'zining dahshatli zug'umini ko'rsatib turgan bir davrda yaratilgan va rus tilida bir necha marta chop etilgan edi. Yozuvchining ayrim fikrlari qahramoni Umar Hayyom shaxsiy hayoti bilan bog'liq bo'lgan tafsilotlar buyuk munajjim shoirning dahriylik faoliyati bugungi o'zbek kitobxonlari uchun erish tuyilishi mumkin, shuningdek tarixiy qissada keltirilgan turkiy sulola (saljuqiylar, g'aznaviylar, qoraxoniylar) turkiy xalqlar: (o'g'uzlar, turkmanlar, va turklar va boshqalar) turkiy hukumdorlar: (Sulton Mahmud G'aznaviy, Sulton Malik Shohiy, Shams-ul mulk Sulton Barluq) hamda musulmonlar va islom dini ulamolariga nisbatan aytilgan keskin tanqidiy fikrlar va ayrim xato qarashlar o'sha davr mahsulidir. Shuning uchun ham tarjima jarayonida asar juz'iy qisqartirilishlarga uchragan.

Bu qissani taniqli tarjimonlar X. Mansurova va Sh. Mansurovlar o'zbek tiliga mohirlik bilan tarjima qilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Arrian Flaviy, Poxod Aleksandra, M.—L., 1962;
2. O'zbekiston xalqlari tarixi, 1j., T., 1950;
3. Shaxermayr F., Aleksandr Makedonskiy, M., 1986;
4. Gafurov B., Sibukidis D.I., Aleksandr Makedonskiy i Vostok, M., 1980